



O'zbekiston Ekologik
partiyasi



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY MAJLISI QONUNCHILIK PALATASI



O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining
Iqlim o'zgarishi oqibatlarini kamaytirish va "yashil" iqtisodiyotga
o'tishni tezlashtirish masalalari bo'yicha komissiyasi

O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" ijtimoiy – iqtisodiy, siyosiy, ilmiy – ommabop jurnal

**“YASHIL IQTISODIYOT VA EKOLOGIK BARQAROR
RIVOJLANISHDA ILG'OR MUHANDISLIK MAKTABLARINI
SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI”
Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi**

2025-YIL 3-DEKABR

**Republican Scientific–Practical Conference
“CHALLENGES IN DEVELOPING ADVANCED ENGINEERING
SCHOOLS FOR GREEN ECONOMY AND ENVIRONMENTAL
SUSTAINABILITY”**

3 DECEMBER 2025

**Республиканская научно-практическая конференция
«ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПЕРЕДОВЫХ
ИНЖЕНЕРНЫХ ШКОЛ В РАЗВИТИИ ЗЕЛЁНОЙ
ЭКОНОМИКИ И ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ»**

3 ДЕКАБРЯ 2025 ГОДА

10-MAXSUS SON

Toshkent — 2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 102 sahifa.

2025-yil, dekabr

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor

Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate

Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor

Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor

Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor

Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)

Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)

Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor

Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan

Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor

Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer

Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor

Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)

Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)

Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow))

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor

Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)

Mirzaliyev Sanjar Makhmatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE

Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Khusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

OLIY TA'LIMDA EKO-TURIZMNI RIVOJLANTIRISH ORQALI OROLBO'YI HUDUDINING EKOLOGIK BARQARORLIGINI MUSTAHKAMLASH.....	7
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich	
“YASHIL ENERGETIKA” – O‘ZBEKISTONNING YASHIL VA SOG‘LOM KELAJAGI IQTISODIYOTIMIZNING YANGI DRAYVERI.....	10
Abdushukur Hamzayev	
BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARIGA ERISHISHDA EKOLOGIK MADANIYATNING AHAMIYATI.....	12
Xodjayeva Mohira Mirzaxmadovna	
QAYTA TIKLANUVCHI YASHIL ENERGIYA: BARCHA UCHUN MUHIM MASALA.....	15
Muxiddin Kalonov	
“YASHIL IQTISODIYOT”GA O‘TISH ASOSIDA “YASHIL O‘SISHNI” TA‘MINLASH: MUOMMO VA YECHIMLAR	19
Makhmudov Nosir Makhmudovich	
YASHIL OBLIGATSIYALAR: IQTISODIY FAOLLIK VA HISOB YURITISHNING DOLZARB MASALALARI	23
Norboy G‘anievich Karimov	
YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISHDA ILG‘OR MUHANDISLIK MAKTABLARI VA TEXNOPARKLARNING AHAMIYATINI AKADEMIK TA‘LIM JIHATIDAN TAKOMILLASHTIRISH.....	26
Sanjarbek Mirzaliyev Maxamatjon o‘g‘li	
INDUSTRIYAL SANOAT EHTIYOJLARIGA MOS, INNOVATSIYALAR YARATISHGA QODIR MUHANDISLARNI TAYYORLASHDA ILG‘OR MUHANDISLIK MAKTABLARI VA “YASHIL” IQTISODIYOT INTEGRATSIYASINING STRATEGIK AHAMIYATI.....	28
Sherzod Qurbonov	
YASHIL BUXGALTERIYA VA YASHIL MOLİYANI RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK DOLZARBLIGI.....	31
Tulyaganov Abdumalik Abdiraximovich	
EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA‘MINLASHDA YASHIRIN IQTISODIYOTNING IJTIMOY-IQTISODIY TAHLILI	34
Mavlyanov Muzaffar Yusupovich	
YASHIL MOLİYAVIY INNOVATSIYALAR VA ULARNING EKOLOGIK INFRATUZILMA MODERNIZATSIYASIDAGI ROLI.....	37
Tursunkulova Gulchiroy Burxonovna	
РОЛЬ ФИНАНСОВОЙ ИНКЛЮЗИИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ ДО 2030 ГОДА.....	40
Алимова Азиза Шерзатовна	
SANOATDA YASHIL ENERGIYADAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MARKETING YONDASHUVLAR.....	46
Abdullaev Elörbek Odiljon o‘gli	
MODA SANOATIDA YASHIL MARKETING VA ISTE‘MOLCHILARNING EKOLOGIK ONGINI RIVOJLANTIRISH.....	50
Ahmadjonova Rayhona Jasurbek qizi	
YASHIL ERP TIZIMLARINING KORXONALARDA BARQAROR RIVOJLANISH VA MARKETING SAMARADORLIGIGA TA‘SIRI	54
Azizov Abdulla Abdisalamovich	
OLIY TA‘LIM MUASSASALARINI INNOVATSION MENEJMENT ASOSIDA YASHIL MARKETINGDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANI QO‘LLASH	58
Boltayeva Sitora Mirdjonovna	



HUDUDLARARO IJTIMOY TENGLIKNI TA'MINLASHDA YASHIL MARKETING INSTRUMENTLARINING AHAMIYATI	62
Ibrohimov Baxtrom Bog'dirovich	
OLIY TA'LIMDA YASHIL INNOVATSIYALARNI TARG'IB QILISH ORQALI XORIJIY TALABALAR OQIMINI OSHIRISH	66
Isamuqometov Shukurullo Asotullayovich	
YASHIL INNOVATSIYALAR ASOSIDA AGROMARKETING STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISH VA MEVA SABZAVOT BOZORIDAGI NARX BARQARORLIGI MODELI	70
Isroilov Abdurashid Abduraxmanovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA MIJOZLAR BILAN YASHIL RAQAMLI ALOQALARNI SHAKLLANTIRISH STRATEGIYALARI.....	75
Mirziyodova Gulnozaxon Ayubxon qizi	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDAGI BILIMLARNI BAHOLASH TIZIMLARI VA ULARNING RAQAMLI IQTISODIYOTGA MOSLASHGAN ILG'OR YONDASHUVLARI	78
Radjabov Bunyod Abduxalilovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA MIJOZLAR BILAN YASHIL RAQAMLI ALOQALARNI SHAKLLANTIRISH STRATEGIYALARI.....	82
Mirziyodova Gulnozaxon Ayubxon qizi	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA SUN'IY TOLALARDAN FOYDALANISHDA BARQAROR TA'MINOT ZANJIRI BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH	85
Raximov Furqat Jalolovich	
TIJORAT BANKLARIDA OMONAT HAJMINI OSHIRISHDA RAQAMLI MARKETING VOSITALARINING ROLI	89
Raximov Shoxrux Furqatovich	
PAXTA TO'QIMACHILIK KLASTERLARIDA YASHIL MARKETING STRATEGIYALARINI JORIY ETISH VA ULARNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH	93
Tadjiev Sa'dulla Muhitdinovich	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI BOZORLARIDA YASHIL INNOVATSIYALAR ASOSIDA DIVERSIFIKATSIYA MARKETING STRATEGIYASINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	97
Xudayberganov Jasur Baxodirovich	



BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARIGA ERISHISHDA EKOLOGIK MADANIYATNING AHAMIYATI

Xodjayeva Mohira Mirzaxmadovna
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati

Annotatsiya. Hozirgi kunda atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishda aholining ekologik madaniyatini oshirish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Darhaqiqat, ekologik madaniyati yuksak, ma'naviyati esa yuqori bo'lgan inson tabiatga zarar yetkazmaydi.

Maqolada aynan barqaror rivojlanishga erishishda jamiyatda ekologik madaniyatning o'рни va ahamiyati, ekologik madaniyatni jamiyatda yuksaltirishning mexanizmlari va yo'nalishlari, bu borada xalqaro amaliyot ochib berishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: ekologik madaniyat, atrof-muhit muhofazasi, ekologik xavfsizlik, "yashil" iste'mol madaniyati.

Abstract. Today, enhancing the environmental culture of the population plays a crucial role in protecting the environment and ensuring the sustainable use of natural resources. Indeed, individuals with a high level of environmental awareness and moral values do not harm nature. This article examines the role and importance of environmental culture in achieving sustainable development, outlines key mechanisms and directions for strengthening environmental culture in society, and reviews relevant international practices.

Key words: environmental culture, environmental protection, environmental security, "green" consumption culture.

Аннотация. В современных условиях повышение экологической культуры населения приобретает приоритетное значение в деле охраны окружающей среды и рационального использования природных ресурсов. Действительно, человек с высоким уровнем экологической культуры и духовности не наносит вред природе. В статье раскрывается роль и значение экологической культуры в достижении устойчивого развития, рассматриваются механизмы и направления её повышения в обществе, а также анализируется международная практика в данной сфере.

Ключевые слова: экологическая культура, охрана окружающей среды, экологическая безопасность, культура «зелёного» потребления.

Tarixan falsafiy-axloqiy ta'limot sifatida qarab kelingan ekologik madaniyat globallashuv jarayonlariga kelib umumbashariy ekologik muammolarning oldini olish va hal etishda jamiyatning ustuvor tadbirlaridan biriga aylandi. Yangi O'zbekiston davriga kelib esa aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish davlat umummilliy madaniy siyosatining ajralmas uzviy qismi sifatida olib chiqishga sa'y-harakatlar olib borilmoqda.

Zero, ekologik ta'limning muhimligi hozirgi zamonaviy dunyoda hech kimda shubha uyg'otmasligi bilan birgalikda ko'plab mamlakatlarda ta'lim va tarbiya berishning ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Aholining ekologik madaniyatini va atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishni shakllantirishga qaratilgan ushbu faoliyat butun insoniyat kelajagi xavfsizligining kafolati hisoblanadi.

1992-yilda BMT Bosh Assambleyasining maxsus rezolyutsiyasi bilan tashkil etilgan Barqaror rivojlanish komissiyasi hisobotida barqaror taraqqiyot yo'lidagi ta'lim "barqaror taraqqiyot" tushunchasining mohiyatini aks ettiradi. Atrof-muhit va taraqqiyot xalqaro komissiyasining taqdim etilgan axborotida bu tushuncha "bo'lajak avlodlar o'z ehtiyojarini qondirishlari imkoniyatini xavf ostiga qo'ymagan holda hozirgi zamon ehtiyojarini qondirishga qaratilgan" taraqqiyot sifatida ta'riflanadi [1].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 9-dekabrda "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi 754-XII-son¹ Qonunining 4-moddasida "...barcha turdagi ta'lim muassasalarida ekologiya o'quvining majburiyligi" qayd etilgan bo'lib, ekologik ta'limning bosh maqsadi aholining barcha qatlamlarida, jumladan, umumta'lim maktablari va kollej o'quvchilari hamda oliy ta'lim talabalarida atrof-muhitni asrash masalalariga ongli munosabatni shakllantirishdan iboratdir [2].

1 <https://www.lex.uz/acts/-107115>



Globalashgan olam shunday davrni boshidan o'tkazayptiki, yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirish ta'lim faoliyatining dolzarb yo'nalishlaridan biriga aylandi. Yoshlarda ekologik bilimlar qanchalik kichik yoshdan shakllansa, bunday ta'lim shunchalik katta samara beradi. Shuning uchun ushbu jarayonni ilmiy tashkil qilish davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi zarur.

Bugun o'tmishdan meros bo'lib kelayotgan tabiatga yetkazilgan zararning chuqur asoratlarini tugatish haqida, ekologik xavfsizlik va atrof-muhit muhofazasiga alohida e'tibor qaratilayotgan bir paytda ekologik madaniyat degan tushunchaning mag'zini, afsuski, barcha birdek anglab yetmayotgani yo'q. Ba'zan ko'cha-ko'ya chiqindi uloqtirayotgan, ariq suviga mag'zava ag'darayotganlarga nogahon ko'zimiz tushadi.

Noqonuniy daraxt kesayotgan, pista chaqib xiyobon va ko'chalarni ifloslantirayotgan, xazon yoqayotganlarni ko'rib ta'bimiz xira bo'lishi tabiiy. Afsuski, bularning barchasi oqibatda o'z sog'ligimizga ziyon yetkazishini, umrimizni qisqartirayotganini ba'zida unutib qo'yamiz. Bunday noxush holatlarning asosiy sababi ayrim yurtdoshlarimizning tabiat qonunlarini chuqur bilmaslari, ekologik bilim va tarbiyaning past darajada ekanligidir.

Bugun katta xatar sifatida qaralayotgan ko'pgina ekologik muammolar aynan inson omilining ekotizimga noto'g'ri munosabati oqibatida yuzaga kelayotganligini guvohi bo'lmoqdamiz. Boz ustiga, ekologik ta'lim-tarbiya tabiat va jamiyat o'rtasidagi uzviylikni ta'minlash hamda tabiiy barqarorlikni saqlashda muhim hisoblanadi.

Aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish, atrof-muhitga oqilona munosabatda bo'lish, tabiat ne'matlarini kelgusi avlodlar uchun asrab-avaylash hissini shakllantirish antropogen ta'sirlarning oldini olishning muhim omilidir. Bunda ekologik ta'lim-tarbiyaning ahamiyati va o'rni benihoya kattadir.

Ekologiya faniga oid tadqiqotlar ko'p yo'nalishlar bo'yicha olib borilgan bo'lsa-da, biroq xalqimizning ekologik madaniyati, milliy ekologik an'analarini hanuzgacha chuqur o'rganilmay kelinmoqda. Zero, bizda tabiatga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo'lish tarixi kabi ko'hnadir, ajdodlarimiz tabiat va inson uyg'unligiga erishishni ta'minlashga intilib, kelgusi avlod uchun ona zaminimizni asrab-avaylab, u bilan bog'liq asriy qadriyatlardan iborat madaniy merosga tayanib kelingan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi "2030-yilgacha bo'lgan davrda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-184-son² qarori bilan 2030-yilgacha bo'lgan davrda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasi tasdiqlandi [3]. Konsepsiyaning asosiy maqsadi o'sib kelayotgan yosh avlodga ekologik bilim, ong va madaniyatni shakllantirish hamda rivojlantirish, ushbu yo'nalishda ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, aholining barcha qatlamlarida ekologik madaniyatni, jumladan "yashil" iste'mol madaniyatini yanada yuksaltirish hisoblanadi [4].

"Yashil" iste'mol madaniyati tushunchasi — bu ikkita asosiy tushunchaning uyg'unligi natijasidir. Bular — iste'mol madaniyati va "yashil" (ekologik) iste'mol tushunchasi.

1. *Iste'mol madaniyati — ijtimoiy va madaniy ildizlardan kelib chiqqan bo'lib, odamlarning mahsulot va xizmatlarga bo'lgan munosabati, xarid qilish, foydalanish, qayta ishlash, chiqindilarni boshqarish kabi odatlaridir. Bu madaniyat tarixiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy qadriyatlar va ta'lim-tarbiya asosida shakllangan.*

2. *"Yashil" iste'mol — 1980–90-yillarda global ekologik muammolar (iqlim o'zgarishi, chiqindilarni qayta ishlash muammosi, resurslar yetishmovchiligi) asosida "yashil" iste'mol g'oyasi paydo bo'lib, rivojlandi. Ekologik ong va barqaror rivojlanish g'oyasidan kelib chiqib, odamlarda atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan mahsulotlar va odatlarni shakllantirish qilgan.*

Fikrimizcha, "yashil" iste'mol madaniyati — aynan ikki tushunchaning birlashuvi bo'lib, odamlarning atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan, resurslarni tejaydigan, qayta ishlashni qo'llab-quvvatlaydigan, ekologik mas'uliyatga asoslangan iste'mol odatlari va qadriyatlarini tizimini anglatadi.

Demak, "yashil" iste'mol madaniyati — ijtimoiy qadriyatlar, ekologik ong, iqtisodiy mas'uliyat va ta'lim asosida rivojlangan yaxlit madaniy tushuncha bo'lib, u jamiyatda mas'uliyatli, oqilona va barqaror iste'molni shakllantirishni ko'zlaydi [5, 6, 7].

Shuningdek, konsepsiyaning maqsadi yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida mustahkamlangan har kimning qulay atrof-muhitga, uning holati to'g'risida ishonchli axborotga ega bo'lish huquqini ta'minlovchi, aholining ekologik madaniyatini shakllantirish va yuksaltirish chora-tadbirlarini nazarda tutuvchi huquqiy asoslarni xalqaro standartlar asosida takomillashtirishdan iboratdir.

Ma'lumki, "yashil" iste'mol madaniyati avvalo ekologik mas'uliyatni his etgan holda yurish-turish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, "yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirish maqsadlarida ishlab chiqarish va iste'mol madaniyatini rivojlantirishni o'z ichiga qamrab oladi.

Oziq-ovqat xavfsizligi tizimi nafaqat oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishni, balki fuqarolar tomonidan ularni iste'mol qilish madaniyatini ham nazarda tutadi. Shundan kelib chiqqan holda, birgina poytaxtimiz Toshkent shahrida kuniga 3 tonna non chiqindiga chiqarilayotganligi yoki mamlakat bo'yicha yiliga 3 million tonna oziq-

2 <https://lex.uz/uz/docs/-7528761>



ovqat mahsulotlarining isrof qilinishi, yohud iqtisodiyotning energiya va resurs hajmdorligi yuqori darajada qolayotganligi barcha qatlamdagi aholining “yashil iste’mol” madaniyatini yuksaltirishga ehtiyoj borligidan dalolat bermoqda.

Shuningdek, bugungi globallashuv jarayonlarida aholining iste’molchi sifatida elektr va issiqlik energiyasi, ichimlik suvi va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini yanada takomillashtirishga ehtiyoj sezilmoqda. Boz ustiga, uglevodorod va suv kabi tabiiy resurslarning chegaralanganligi ularni tejash va ulardan oqilona foydalanish choralarini ko’rish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Rivojlangan mamlakatlarda oziq-ovqat va tabiiy resurslar isrofgarchiligiga qarshi kurashish borasida qat’iy choralar ko’rilmoqda. Xususan, 2016-yilda Fransiyada supermarketlarning sotilmay qolgan, biroq iste’molga yaroqli oziq-ovqat mahsulotlaridan voz kechishini taqiqlaydigan qonun qabul qilingan. Unga muvofiq, savdo do’konlari sotilmay qolib ketgan mahsulotlarni yordamga muhtoj aholi qatlamiga yetkazib berish yuzasidan xayriya tashkilotlari bilan shartnoma tuza boshladi. Xitoy parlamenti esa 2021-yilda oziq-ovqat mahsulotlarining isrof etilishiga qarshi kurashish bilan bog’liq qonun qabul qilgan [8].

Ushbu hislatlarni esa insonning yoshligidayoq ongiga singdirish o’z samarasini bera oladi. Shu sababli “yashil” iqtisodiyotni barpo etishga yoshlarni jalb etish bo’yicha maxsus dasturlarning amalga oshirilishi ekologik madaniyatni yuksaltirishga imkon beradi.

Tabiiyki, ekologik madaniyatning shakllanishi uzoq davom etadigan jarayon bo’lib, bunda eng avvalo, shaxsni rivojlantirish va kelajakda ekologik savodxon xulq-atvorning asosi sifatida ekologik bilimlarning fundamentalligini ta’minlash zarur bo’ladi. Shu asosda atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslarga nisbatan ehtiyotkorona munosabat borasida qadriyatlar va e’tiqodlar tizimi shakllanadi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining ilk bor Oliy Majlis palatalariga Murojaatnomasida so’zlagan nutqida: “Eng muhim masala — aholining ekologik madaniyatini oshirish haqida jiddiy bosh qotirishimiz zarur. Albatta, bunday muammolarni faqat ma’muriy yo’l bilan hal etib bo’lmaydi, bunga yosh avlod qalbida ona tabiatga mehr-muhabbat, unga daxldorlik hissini tarbiyalash orqali erishish mumkin”, deb ta’kidlangan edi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish orqali yuksak ma’naviyatli jamiyat barpo etish maqsadida quyidagi kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1. 2030-yilgacha bo’lgan davrda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasida belgilangan vazifalarni to’liq va sifatli amalga oshirishning barcha choralarini ko’rish.
2. Jamiyatda ekologik madaniyatni yuksaltirish nafaqat davlat va jamiyatning, yoxud maxsus vakolatli davlat organining, balki har bir fuqaroning vazifasi bo’lishiga erishish.
3. “Ekologik madaniyatni yuksaltirish to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasining qonuni loyihasini ishlab chiqish.
4. “Yashil” iste’mol madaniyatiga o’tishning sodda, shaffof va maqbul iqtisodiy mexanizmlarini keng joriy etish.
5. Ta’lim-tarbiya tizimida “yashil” moliyalashtirish institutini keng joriy etish.
6. Turli tarmoqlar uchun aholining ekologik madaniyatini yuksaltirishga yo’naltirilgan o’quv va badiiy adabiyotlar, metodik qo’llanmalar ishlab chiqish va yetarli hajmda chop etish.
7. Turli ekologik mavzularda, xususan “Buloqcha”, “Rodnichok” bolalar jurnalini keng ommaga yetkazish, adadini ko’paytirish.
8. O’rta ta’lim muassasalarining 5–8-sinf o’quvchilari uchun ekologik ensiklopediya yaratish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Публикация Организации Объединенных Наций. Глобальный доклад об устойчивом развитии, <https://sdgs.un.org/ru/gsdg>;
2. O’zbekiston Respublikasining 1992-yil 9-dekabrda qabul qilingan “Tabiatni muhofaza qilish to’g’risida”gi 754-XII-son Qonuni. <https://www.lex.uz/acts/-107115>
3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi “2030-yilgacha bo’lgan davrda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PQ-184-son qarori <https://lex.uz/uz/docs/-7528761>
4. Ижтимоий тармоқдаги <https://kun.uz/kr/58576449> сайти маълумотлари
5. 1987 – БМТнинг “Our Common Future” (Брундтланд ҳисоботи): Барқарор ривожланиш ғояси.
6. 1992 – Рио-де-Жанейродаги БМТнинг “Атроф-муҳит ва ривожланиш конференцияси” (Rio Earth Summit): Экологик масъулият ва яшил истеъмолни тарғиб этиш.
7. UNEP (United Nations Environment Programme) ва бошқа халқаро ташкилотлар томонидан “яшил” истеъмол маданиятини шакллантириш бўйича дастурлар.
8. Президент Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис палаталари, сиёсий партиялар ҳамда Ўзбекистон Экологик ҳаракати вакиллари билан видеоселектор йиғилишидаги маърузаси, 13 июль 2017 йил;
9. “Ekologiya xabarnomasi” Махсус сон (14) 2025 йил. Тошкент



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10-maxsus son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>



ISBN 978-9910-8407-4-6



9 789910 840746